



YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARIDA IJTIMOY SUG'URTA TIZIMI

PhD Javliyev Nuriddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-4758-4594

n.javliev@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimining asosiy xususiyatlari, tuzilishi, moliyalashtirish mexanizmlari va Yevropa miqyosidagi muvofiqlashtirish qoidalarini tahlil qiladi. Har bir a'zo davlat o'z milliy ijtimoiy sug'urta tizimini mustaqil ravishda shakllantirish huquqiga ega bo'lsa-da, Yevropa Ittifoqi fuqarolarining erkin harakatlanishi va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish maqsadida umumiy muvofiqlashtirish qoidalari joriy etilgan. Maqolada ijtimoiy himoya xarajatlarining YaIMdagi ulushi, asosiy yo'nalishlar hamda turli ijtimoiy modellar taqqoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, YI mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimi aholini ijtimoiy xatarlardan himoya qilishning samarali mexanizmi bo'lib, ammo aholining qarishi va moliyaviy bosimlar tufayli doimiy islohotlarni talab etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy sug'urta, sug'urta ballari, shaffoflik, manzilli yordam, davlat subsidiyalari, ijtimoiy himoya, kambag'allik, institutsional islohotlar, raqamlashtirish, inson kapitali.

СИСТЕМА СОЦИАЛЬНОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАНАХ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА

PhD Жавлиев Нуриддин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются основные особенности системы социального страхования в странах Европейского союза, её структура, механизмы финансирования и правила координации на общеевропейском уровне. Несмотря на то, что каждое государство-член имеет право самостоятельно формировать свою национальную систему социального страхования, с целью обеспечения свободного передвижения граждан Европейского союза и защиты их социальных прав были внедрены общие координационные правила. В статье сопоставляются доля расходов на социальную защиту в валовом внутреннем продукте (ВВП), основные направления социальной политики, а также различные социальные модели. Результаты исследования показывают, что в странах Европейского союза система социального страхования является эффективным механизмом защиты населения от социальных рисков, однако в условиях старения населения и усиления финансового давления она требует постоянных реформ.

Ключевые слова: социальное страхование, страховые баллы, прозрачность, адресная помощь, государственные субсидии, социальная защита, бедность, институциональные реформы, цифровизация, человеческий капитал.

SOCIAL INSURANCE SYSTEM IN THE COUNTRIES OF THE EUROPEAN UNION

PhD Javliyev Nuriddin
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article analyzes the main features of the social insurance system in the countries of the European Union, its structure, financing mechanisms, and coordination rules at the European level. Although each member state has the right to independently establish its national social insurance system, common coordination rules have been introduced to ensure the free movement of European Union citizens and the protection of their social rights. The article compares the share of social protection expenditures in gross domestic product (GDP), key policy directions, and various social models. The results of the study indicate that the social insurance system in European Union countries serves as an effective mechanism for protecting the population from social risks; however, due to population aging and increasing financial pressures, it requires continuous reforms.*

Keywords: *social insurance, insurance points, transparency, targeted assistance, state subsidies, social protection, poverty, institutional reforms, digitalization, human capital.*

Kirish.

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida iqtisodiyotida ijtimoiy sug'urta asosiy o'rinni egallab, YAIM hajmining to'rtidan bir qismi uning hissasiga to'g'ri keladi va bunda pensiya sug'urtasi, tibbiy hamda ishsizlik sug'urtalari asosiy salmoqqa ega. Eng muhim xususiyat shundan iboratki, ijtimoiy sug'urta mablag'larini shakllantirishda ish beruvchilar va ishchilarning faol ishtiroki mavjud va mazkur tizimida xususiy sektor yetakchi mavqega ega: Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya mamlakatlarida ko'p darajali pensiya tizimi va majburiy tibbiy sug'urtaning amal qilish; ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning rivojlanganligi; ishsizlik sug'urtasi bo'yicha keng ko'lamdagi ijtimoiy xizmatlar mavjudligi shular jumlasidandir. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, davlat pensiyalari, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar, mehnatda jarohatlanish yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni qoplanishi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha va ishsizlik nafaqalari, asosan, ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Fransiya, Estoniya, Latviya davlatlari) hisobidan moliyalashtiriladi. Ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari esa ish beruvchi va ishchilarning ijtimoiy sug'urta badallari hisobidan shakllantiriladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimi XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan va Bugungi kunda dunyodagi eng rivojlangan ijtimoiy modellaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta nafaqat fuqarolarni kasallik, ishsizlik, nogironlik, qarilik va oilaviy mas'uliyat kabi xatarlardan himoya qiladi, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqida ijtimoiy himoya xarajatlari 2024 yilda YAIMning o'rtacha 27,3 foizini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich Finlandiyada 32,5%, Fransiyada 31,9% va Avstriyada 31,8% ni tashkil etadi.

Har bir mamlakat o'z milliy qonunchiligiga asosan nafaqa turlarini, miqdorini va shartlarini belgilaydi. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi fuqarolari va qonuniy rezidentlarining boshqa a'zo davlatlarga ko'chib o'tishi yoki ishlashi holatlarida ijtimoiy huquqlarini saqlab qolish uchun maxsus muvofiqlashtirish mexanizmlari mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro andozalarga muvofiq, "ijtimoiy himoya, tibbiy yordam, tibbiy sug'urta, oilani, ona va bolani davlat tomonidan qo'llabquvvatlash, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish huquqini o'z ichiga oladi" (Ярошенко, 2005). "Insoniyat taraqqiyotining istalgan bosqichida, odatda, inson mehnatga layoqatsizlarni,

nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llabquvvatlamasdan yashay olmasligini hisobga olish adolatdan bo'ladi" (Калашников, 2003). Shu sababli, ijtimoiy himoyalarni ijtimoiy xavf xatarlar oqibatida shakllanadigan fuqarolarning ijtimoiy maqomini, ularning umum e'tirof etilgan huquqlarini belgilaydigan shartlarga muvofiq ijtimoiy himoyani jamiyatning asosiy vazifasi sifatida sharhlash maqsadga muvofiq.

Iqtisodchi-olim Djumanova (2014) tadqiqotlarida aholi turmush darajasini oshirish va sifatini yaxshilash yo'nalishlariga e'tibor qaratadi. "Insonlarning ta'lim olganlik darajasi ularning o'z sixatsalomatligi bilan to'g'ri proporsional" ekanligini ta'kidlaydi.

Jumladan, mamlakatimiz 2030 yilga qadar yuqori o'rta daromadli davlatlar qatoriga kirish uchun ijtimoiy sohani moliyalashtirish ko'lamini jiddiy kengaytirishning dolzarbligini asoslab beradi.

Xasanxonova (2014) aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi: "ta'lim, fan-texnika taraqqiyoti va sog'liqni saqlash".

Majidov, Rayxanovlar (2016) ijtimoiy sohani moliyalashtirishda ijtimoiy sug'urtaga alohida e'tibor qaratadilar. Jumladan, "ijtimoiy himoya choralari iqtisodiyotning ehtiyojlariga muvofiq ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni yaxshilash imkonini beradigan eng maqbul vositaga aylandi", degan xulosaga keladilar.

Shu bilan birga, YAIM hajmidagi ijtimoiy xarajatlarning ulushi ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanib, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatda aholining turli tabaqalari o'rtasida daromadlarning taqsimlanishi teng bo'lmasligini ta'kidlab o'tadilar.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda ijtimoiy sohani moliyalashtirish va aholini ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishda ish haqi va unga nisbatan soliq siyosatining qo'llanilishida yagona yondashuv mavjud. Ijtimoiy himoya tizimini shakllanishida yagona yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, jamiyatda aholi daromadlarni taqsimlashda farqlar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya hamda boshqa ilmiy-tadqiqot usullari keng qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta tizimi aholini ijtimoiy xatarlardan himoya qilishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Ushbu tizim har bir mamlakatda mustaqil ravishda shakllangan bo'lib, Yevropa Ittifoqi darajasida faqat ko'chib yuruvchi fuqarolar huquqlarini muvofiqlashtirish bilan cheklangan. Tizimning umumiy tuzilishi ikki asosiy modelga asoslanadi: Bismark modeli va Beverij modeli. Ko'pgina mamlakatlarda bu ikki modelning gibridd shakllari qo'llaniladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi ijtimoiy sug'urta tizimi solidarlik, ekvivalentlik va universalizm printsiplariga asoslanadi, ammo milliy xususiyatlar tufayli sezilarli farq qiladi. Kontributiv nafaqalar tizimning "sug'urta" qismini, nokontributiv va universal nafaqalar esa "ijtimoiy yordam" va "kafolat" qismini tashkil etadi. Moliyalashtirishning barqarorligi uchun badellar va soliqlar muvozanati muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizimning samaradorligi nafaqat moliyaviy yuklamaga, balki iqtisodiy o'sish, bandlik darajasi va aholining ishonchiga ham bog'liq.

Pensiya ta'minoti ijtimoiy sug'urta tizimining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqida pensiya tizimlari asosan "pay-as-you-go" (PAYG) ya'ni avlodlar birdamligi tamoyiliga asoslangan. Bu tizimda ishlayotgan avlod to'laydigan badallar nafaqaxo'rlarga to'lanadigan pensiyalarni moliyalashtiradi.

Biroq, so'nggi o'n yilliklarda bir qator mamlakatlar PAYG tizimini fondlashtirilgan tizimlar bilan birlashtirgan aralash modellarni joriy etmoqda. Polsha va Shvetsiya virtual hisobvaraqlar

tizimini joriy qilgan bo'lib, unda har bir ishchining hisobvarag'iga uning to'lagan badallari yozib boriladi, ammo bu mablag'lar real fondlashtirilgan aktivlar emas, balki majburiyatlar sifatida hisobga olinadi

Yevropada aholining qarishi ijtimoiy sug'urta tizimlarining barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Qariyalar ulushining ortishi va mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarishi natijasida PAYG tizimlarida muvozanat buzilmoqda

1-jadval

Italiya va Shvetsiyagi demografik o'zgarishlarga nisbatan chora-tadbirlar

Ko'rsatkich	Shvetsiya	Italiya
Islohot tezligi	Tez, keskin o'zgarishlar	Sekin, bosqichma-bosqich o'zgarishlar
Pensiya modeli	Nominal belgilangan badal (NDC)	An'anaviy huquqlarga asoslangan model
Avlodlararo adolat	Yuqori darajada ta'minlangan	Nisbatan past
Moslashuvchanlik	Yuqori	O'rtacha

Shvetsiyaning tajribasi shuni ko'rsatadiki, pensiya tizimini demografik va iqtisodiy o'zgarishlarga avtomatik moslashuvchan qilish tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda samarali usul hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqida pensiya yoshini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat a'zo davlatlarda pensiya yoshi 67 yoshga yetkazilmoqda yoki undan ham yuqori belgilanmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, byudjet bosimini kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, keksa yoshdagi ishchilarning mehnat bozorida qolish imkoniyatlarini kengaytirishni talab qiladi.

Mamlakat	Model turi	Pensiya yoshi	O'rtacha pensiya (EUR/oy)	Pensiya /YaIM %	Pensiya tizimi barqarorligi (1-10)
Shvetsiya	NDC + fond	67 (63-69)	1,850	8.2%	9.2
Germaniya	PAYG (Bismark)	67	1,620	9.5%	7.5
Fransiya	PAYG (Bismark)	67	1,580	11.2%	6.8
Italiya	PAYG	67	1,450	12.1%	5.9
Polsha	NDC + qisman fond	66 (→68)	1,120	7.8%	7.0
Niderlandiya	Aralash	67	1,890	8.5%	8.5
Daniya	Beverij + fond	67	1,780	7.2%	8.8
Buyuk Britaniya	Beverij	67	1,230	5.5%	7.2

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya tizimlari tarixiy, iqtisodiy va demografik omillarga asoslanib shakllangan bo'lib, asosan ikki klassik model — Bismark va Beverij— o'rtasidagi farqlarni aks ettiradi. Ko'pgina mamlakatlarda bu modellar gibrid shaklda qo'llaniladi, ya'ni notional defined contribution, pay-as-you-go (PAYG) va fond elementlari birgalikda ishlatiladi. Aholi qarishi, umr ko'rish davomiyligining o'sishi va mehnat bozorida o'zgarishlar fonida pensiya tizimlarining barqarorligi va adekvatligi dolzarb muammoga aylangan.

Shimoliy Yevropa mamlakatlari (Shvetsiya, Daniya, Niderlandiya) pensiya tizimlarida yuqori barqarorlikka ega. Ular NDC, fond elementlari va universal kafolatlarni muvaffaqiyatli birlashtirgan. Bu mamlakatlarda pensiya xarajatlari YaIMning nisbatan past ulushini egallaydi, ammo o'rtacha pensiya miqdori yuqori va tizimning uzoq muddatli barqarorligi ta'minlangan.

Kontinental Yevropa (Germaniya, Fransiya, Italiya) klassik PAYG-Bismark modellari ustunlik qiladi. Bu yerda o'rtacha pensiya miqdori yuqori bo'lsa-da, pensiya xarajatlari YalMning katta qismini (10% dan ortiq) egallaydi va demografik bosim tufayli barqarorlik pastroq baholanadi. Italiya va Fransiyada xarajatlar darajasi ayniqsa yuqori.

Markaziy va Sharqiy Yevropa vakili sifatida Polsha NDC modeliga o'tish orqali barqarorlikni oshirishga harakat qilmoqda, ammo o'rtacha pensiya miqdori hali ham pastroq.

Buyuk Britaniya Beverij modelining klassik namunasi bo'lib, past xarajatlar va universal yondashuv bilan ajralib turadi, lekin pensiya adekvatligi jihatidan boshqa Shimoliy mamlakatlardan orqada qoladi.

Umuman olganda, pensiya tizimlarining barqarorligi quyidagi omillarga bog'liq: fond komponentlarining ulushi, pensiya yoshining moslashuvchanligi, badellar va soliqlar muvozanati hamda mehnat bozoridagi ishtirok darajasi. So'nggi yillarda ko'pgina mamlakatlarda pensiya yoshini ko'tarish, NDC elementlarini kuchaytirish va xususiy pensiya jamg'armalarini rag'batlantirish orqali islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi ijtimoiy sug'urta tizimi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, aholini ijtimoiy xatarlardan himoya qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Milliy tizimlarning xilma-xilligi va Yevropa miqyosidagi muvofiqlashtirish mexanizmlari bu tizimning moslashuvchanligini oshiradi. Biroq, aholining qarishi, moliyaviy bosimlar va yangi iqtisodiy sharoitlar tufayli tizimni doimiy takomillashtirish zarur. Kelajakda raqamli texnologiyalar, barqaror moliyalashtirish va inklyuzivlikni kuchaytirish yo'nalishida islohotlar davom etishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida, shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyati uch darajali pensiya tizimiga ega:

Birinchisi, taqsimlanuvchi pensiya tizimi bo'lib, bunda ish beruvchi va ishchilarning sug'urta badallari hisobidan davlat majburiy pensiya sug'urta tizimi joriy etilgan.

Ikkinchisi, korporativ pensiya bo'lib, bunda korxonalar yoki tarmoq darajasida ishchilar uchun qo'shimcha sug'urta badallari joriy etilgan.

Uchinchisi, xususiy pensiya bo'lib, bunda ishchining o'z mablag'lari hisobidan ajratmalar nodavlat pensiya fondlariga, sug'urta kompaniyalariga yoki kredit tashkilotlariga shartnoma asosida ixtiyoriy tartibda amalga oshiriladi. Ishchilarga o'z pensiya jamg'armalarini rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan muayyan soliq imtiyozlari belgilanadi.

Jahon banki va IHTTga a'zo mamlakatlarning ijtimoiy sug'urta tizimini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha tajribalari O'zbekistonda ijtimoiy sug'urta tizimining takomillashtirilishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jumladan: – ijtimoiy sug'urta tizimini moliyalashtirishning asosiy manbasi bo'lib, ish beruvchi va ishchilarning ijtimoiy sug'urta ajratmalari, shuningdek, davlat budjeti mablag'lari hisoblanadi. Bunda sug'urta ajratmalari daromad yo'qotilishini qoplovchi asosiy moliyaviy manba rolini o'ynaydi, davlat budjeti mablag'lari hisobidan ijtimoiy ta'minotning minimal darajasi kafolatlanadi;

– aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar ko'p darajali pensiya tizimiga ega bo'lib, bu fuqarolarning keksalikda turli manbalardan pensiya olish imkonini beradi;

– aholining umr ko'rish davomiyligining uzayib borishiga mos ravishda pensiyaga chiqish yoshining bosqichma-bosqich oshirilishi;

– fuqarolar tomonidan mehnat faoliyatining butun davri davomida shakllantirilgan pensiya zaxiralari bilan pensiya miqdorlarining uzviy bog'liqligini kuchaytirish;

– Pensiya olish huquqiga ega bo'lish uchun minimal mehnat staji muddatiga bo'lgan talablarni oshirish;

– nodavlat pensiya ta'minotini rivojlantirish;

– majburiy tibbiy sug'urtaning rivojlanganligi;

– maxsus ijtimoiy sug'urta fondlarining mavjudligi va turli ijtimoiy sug'urta dasturlarining samarali amalga oshirilishi;

– kyeng turdagi ijtimoiy sug'urta tizimining mavjudligi va badallarga asoslanganligi;

– fuqarolarga keksalikda turli manbalardan pensiya olish imkonini beruvchi uch darajali pensiya ta'minotining mavjudligi, majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning rivojlangan tizimiga ega ekanligi hamda keng ko'lamdagi ijtimoiy xizmatlarni qamrab oluvchi ishsizlik sug'urtasining yaxshi yo'lga qo'yilganligi, ijtimoiy sug'urta infratuzilmasining taraqqiy etganligi, o'z navbatida, ijtimoiy sug'urta tizimining samarali tashkil etilganidan dalolatdir.

Adabiyotlar / Лумепатмпа / Reference:

Majidov N., Rayxanov U. (2016) Ijtimoiy sug'urta – inson kapitalini takror ishlab chiqarishga kiritilayotgan investitsiyalar shakli sifatida//Moliyachi ma'lumotnomasi jurnali. – Toshkent, - №11(59). 34-38-b.

Xasanxonova N. (2014) Aholi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga iqtisodiy tafakkurning ta'siri//Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. – Toshkent, - №2. 7-9-b. 41Majidov

Джуманова Р. (2014) Тенденции и проблемы повышения уровня жизни населения в контексте обеспечения социальной безопасности в Узбекистане//Иқтисодиёт ва таълим журнали. – Тошкент, – №6. – С. 10-12. 40

Калашников С. (2003) Социальное рыночное хозяйство и социальное государство // Человек и труд. №9. – С. 32-45. 39

Ярошенко И.С. (2005) Право социального обеспечения: учеб. пособие. – Киев: «КНЭУ», – С. 232. 38